

GLOBAL AXBOROT MAKONIDA ERKIN FIKR BILDIRISHNING HUQUQIY
ASOSLARI

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada internet orqali axborot tarqatish erkinligi va uning huquqiy asoslari tahlil etilib, zararli hamda yolg'on axborotlarning oldini olish bo'yicha qonunchilik normalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda axborot almashinuvi jarayonida yuzaga keladigan huquqiy muammolar, foydalanuvchilarning mas'uliyati, turli xil jamiyat hayotiga oid bo'lmagan xabarlarini tarqatish erkinligi davlat tomonidan cheklab qo'yilishi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, axborot madaniyatini rivojlantirishning dolzarb jihatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *internet tarmog'i, axborot erkinligi, media-savodxonlik, axborot madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, huquqiy madaniyat.*

Abstract: *This article analyzes the freedom of information dissemination via the Internet and its legal foundations, examining legislative norms for preventing harmful and false information. It also discusses legal issues arising during information exchange on social networks, user responsibility, and the state-imposed restrictions on the freedom to disseminate various types of non-societal news. Furthermore, the current aspects of developing information culture are highlighted.*

Keywords: *Internet network, freedom of information, media literacy, information culture, social networks, information security, legal culture.*

Аннотация: *В данной статье анализируется свобода распространения информации через Интернет и её правовые основы, а также рассматриваются законодательные нормы по предотвращению вредоносной и ложной информации. Также обсуждаются правовые проблемы, возникающие в процессе обмена информацией в социальных сетях, ответственность пользователей и ограничение государством свободы распространения различных сообщений, не относящихся к жизни общества. Вместе с тем освещаются актуальные аспекты развития информационной культуры.*

Ключевые слова: *сеть интернет, свобода информации, медиаграмотность, информационная культура, социальные сети, информационная безопасность, правовая культура.*

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadallik bilan rivojlanayotgan davrda, internet tarmog'i insoniyat hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, nafaqat axborot almashish vositasi, balki ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda huquqiy munosabatlarning muhim foydalanuvchisi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, virtual makonda fikr bildirish, turli ma'lumotlarni ommaga yetkazish, jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarining kengayishi natijasida axborot tarqatish erkinligi demokratik jamiyatning asosiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan bir qatorda, internet resurslari orqali tarqatilayotgan asossiz xabarlar, haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlar, ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli yot g'oyalar hamda inson sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi video-kontentlarning ko'payib borayotgani mazkur sohani huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini kuchaytirmoqda.

Axborot makonining cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligi, bir tomondan, fuqarolarning so'z va fikr erkinligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ushbu erkinlikdan noqonuniy maqsadlarda foydalanish holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda¹⁷ ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on xabarlarining tarqalishi, shaxsiy daxlsizlikka tajovuz qiluvchi materiallarning ommalashuvi, millatlararo yoki diniy nizolarni keltirib chiqarishga qaratilgan axborotlarning keng tarqalishi jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdid tug'diradi va har qanday foydalanuvchi internet makonida uchraydigan ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qila olishi, ishonchli va soxta axborotni bir-biridan farqlashi, axborotdan foydalanish jarayonida huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga amal qilishi muhim hisoblanadi.

Zero, yuksak axborot madaniyatiga ega bo'lgan jamiyatda nafaqat raqamli xavfsizlik ta'minlanadi, balki fuqarolarning huquqiy ongi, siyosiy tafakkuri va ijtimoiy faolligi ham yuksaladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi murakkab globallashuv va keskin axborot oqimi sharoitida yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlar, yot g'oyalar hamda zararli axborotlar ta'siridan himoya qilish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi".¹⁷ Davlat rahbari o'z nutq va chiqishlarida ayniqsa internet tarmog'i orqali tarqalayotgan yolg'on ma'lumotlar, ma'naviy qadriyatlarga zid bo'lgan kontentlar hamda inson ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarning xavfi tobora ortib borayotganini alohida qayd etadi.

Shu sababli ham "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da yoshlarning media-savodxonligini oshirish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Haqiqatan ham, hozirgi raqamli davrda internet tarmog'i insoniyat tarixidagi eng yirik axborot maydoniga aylanib ulgurdi. Bir necha soniya ichida dunyoning istalgan nuqtasidagi ma'lumotni olish, uni tarqatish yoki jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi axborot erkinligining amaliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi natijasida oddiy tarmoq foydalanuvchisida ham katta auditoriya hisoblangan axborot manbayiga ega bo'lish imkoniyati paydo bo'ldi, lekin mazkur imkoniyat bilan bir qatorda virtual makonda turli salbiy holatlar, jumladan shaxsiy daxlsizlikka tajovuz, diniy ekstremizm va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi materiallarning keng tarqalishi ham kuchaymoqda.

¹⁷ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-y. [458-460,b].

So'nggi yillarda ayniqsa "fake news" deb ataluvchi yolg'on xabarlarining ommaviy tus olishi jahon hamjamiyatida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Sababi bunday ma'lumotlar qisqa vaqt ichida millionlab insonlar ongiga ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy beqarorlik, vahima yoki noto'g'ri jamoatchilik fikrining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda esa yolg'on axborotlardan siyosiy bosim vositasi sifatida foydalanilayotgani ham kuzatilmoqda.

Shu jihatdan qaraganda, internet tarmog'ida axborot tarqatish erkinligi mutlaq tushuncha emasligi, uning ma'lum huquqiy chegaralari mavjud ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki demokratik jamiyatda har bir fuqaroning fikr bildirish huquqi kafolatlangan bo'lsa-da, boshqa insonlarning sha'ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklariga zarar yetkazuvchi axborotlarni tarqatishga, qonunchilikda alohida e'tibor qaratiladi.¹⁸ Bundan tashqari bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida "yolg'on xabar" shaklidagi soxta video, audio va tasviriy materiallarning ko'payib borayotgani internet makonidagi axborot xavfsizligi masalasini yanada murakkablashtirmoqda.¹⁹

Endilikda oddiy foydalanuvchi haqiqiy va soxtalashtirilgan ma'lumotni ajratib olishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Natijada esa axborotni tanqidiy tahlil qilish, uning manbasini tekshirish va haqqoniyligini baholash ko'nikmasi zamonaviy inson uchun zarur ehtiyojga aylanmoqda. Shu sababli media-savodxonlik fani bugungi davrda nafaqat axborot bilan ishlash madaniyati, balki shaxsning ma'naviy va huquqiy himoyasini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Shuningdek, internet foydalanuvchilarining huquqiy mas'uliyatini oshirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Chunki ko'pchilik virtual makonda joylashtirilgan har qanday izoh, fotosurat yoki videomaterial ham huquqiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkinligini yetarlicha anglamaydi. Xususan, boshqa shaxsning sha'ni va obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatish, mualliflik huquqini buzish, noqonuniy kontentni ulashish yoki millatlararo adovat qo'zg'atishga xizmat qiluvchi materiallarni tarqatish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.²⁰ Shu bois internetdan foydalanish jarayonida foydalanuvchilarning huquqiy ongi va axborot madaniyatini shakllantirish, ayniqsa yosh avlodni virtual makonda mas'uliyat bilan harakat qilish ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, yolg'on xabarlar, inson uchun zararli ma'lumotlar, kiberzo'ravonlik, shaxs sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlovchi materiallarning ommalashuvi jamiyat barqarorligi hamda axborot xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli ko'plab davlatlarda axborot erkinligini ta'minlash bilan bir qatorda, uning qonuniy chegaralarini belgilash va raqamli makonda huquqiy nazoratni kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Media-savodxonlik va axborot madaniyati masalalari bugungi kunda nafaqat

¹⁸ Qodirova X.B. "Media savodxonlik va axborot madaniyatining zamonaviy jamiyatdagi o'rni": T- Toshkent, "Innovatsion rivojlanish" nashriyoti, 2024-y. [64-66, b].

¹⁹ O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni: T-Toshkent, 2022-y. [19-20 moddalar].

²⁰ Muhammadiev J. Xalilov J.S. "Media savodxonlik va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari": T- Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2025-y. [52-55, b].

pedagogik yoki ijtimoiy hodisa sifatida, balki huquqiy xavfsizlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida ham tadqiq etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, internet foydalanuvchisining axborotni saralash, uning ishonchlilik darajasini aniqlash va noqonuniy kontentni farqlash ko'nikmasiga ega bo'lishi demokratik jamiyatning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Chunki raqamli makonda tarqatilayotgan har qanday ma'lumot millionlab insonlarning dunyoqarashi, siyosiy qarashlari va ijtimoiy kayfiyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, xalqaro miqyosda ham media-savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda²¹.

Jumladan, UNESCO va BMT tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarda axborot madaniyatini shakllantirish demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, fuqarolarning axborot xavfsizligini ta'minlash hamda yolg'on xabarlar tarqalishining oldini olishning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi.²² Ayniqsa, so'nggi yillarda kiberfiribgarlik va media axborot texnologiyalarining kengayib borishi natijasida dunyoning ko'plab mamlakatlarida internet orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarni huquqiy tartibga solishga oid normativ mexanizmlar takomillashtirilmoqda.²³

Bu esa axborot erkinligi mutlaq tushuncha emasligini, uning jamiyat xavfsizligi, davlat manfaatlari hamda inson huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, internet tarmog'ida axborot tarqatish erkinligining huquqiy chegaralarini belgilash masalasi inson huquqlari va erkinliklari bilan uzviy aloqador bo'lib, ushbu jarayonda so'z erkinligi hamda jamoat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatda har bir fuqaro o'z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega bo'lsa-da, boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmat, daxlsizligi yoki davlat xavfsizligiga zarar yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatish qonunchilik asosida cheklanadi. Shu bois virtual makonda foydalanuvchilarning huquqiy ongi va axborot madaniyatini rivojlantirish, ularni raqamli etikaga rioya qilish ruhida tarbiyalash, yosh avlodda tanqidiy tafakkurni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida media-savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ta'lim tizimiga zamonaviy media-ta'lim elementlarini joriy qilish, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish hamda internetdan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanishicha, axborot madaniyatiga ega bo'lgan jamiyatda fuqarolarning siyosiy faolligi, huquqiy ong darajasi va ijtimoiy mas'uliyati yanada ortadi.

²¹ Kamolov S.X., Mutalibova S.D. "Axborot makonida media-savodxonlikni rivojlantirishning xorijiy tajribasi": T- Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2025-y. [71-74, b].

²² Kamolov S.X., Mutalibova S.D. "Axborot makonida media-savodxonlikni rivojlantirishning xorijiy tajribasi": T- Toshkent, "Yangi asr avlodi", nashriyot 2025-y. [71-74, b].

²³ UNESCO. "Media va axborot savodxonligi" T- Parij, "UNESCO Publishing" nashriyoti, 2021-y. [41-44, b].

Xulosa qilib aytganda, internet tarmog'ida axborot tarqatish erkinligi deganda, fuqarolarning har bir axborot va yolg'on xabarlarini ommaga ijtimoiy tarmoq orqali tarqatishi emas, balki jamiyat hayotiga oid mazmunli xabarlarini ulashish tushuniladi. Endi masalaning muhim qismi, jamiyatda hamma ham yuksak ijtimoiy ong yoki dunyoqarashga ega bo'lmaydi.

Aynan shu saviyadan, quyi pog'onada turuvchi insonlar davlat fuqarolari uchun zararli bo'lgan ma'lumotlarni taqatishi yo bo'lmasam uning miyasiga sizdirilayotgan yolg'on xabarga ko'r-ko'rona ishonishi- bu tabiiy holat. Bugungi kunda yosh-u qari ijtimoiy tarmoqdan foydalanmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. To'g'ri bu holatda yoshlar ko'proq o'z faoliyatini olib bormoqda.

Lekin, yoshlar bizning kelajagimizni barpo etuvchi, Uchinchi Renessans poydevorini quruvchi inson hisoblanadi. Demak, yoshlarimizda axborot madaniyatini hamda huquqiy madaniyatni shakllantirish bu davlatimiz oldiga qo'yilgan oliy vazifadir.

Axborot madaniyatini shakllantirishda, kelayotgan axborotlarni to'g'ri qabul qilishda, "Media-savodxonlik va axborot madaniyati" fanining ahamiyati hamda roli e'tiborga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-y. [458-460, b].
2. Qodirova X.B. "Media savodxonlik va axborot madaniyatining zamonaviy jamiyatdagi o'rne": T- Toshkent, "Innovatsion rivojlanish" nashriyoti, 2024-y. [64-66, b].
3. Kamolov S.X. Mutalibova S.D. "Axborot makonida media-savodxonlikni rivojlantirishning xorijiy tajribasi": T-Toshkent, "Yangi asr avlodi", nashriyot 2025-y. [71-74, b].
4. Oxunova M.O'. Egamberdiyev D.S. "Axborot madaniyati va raqamli xavfsizlik muammolari": T- Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti, 2024-y. [88-91, b].